

ANVAR OBIDJON IJODIDA HAJV

*Ravshanova Gulruxbegim Qahramon qizi,
QarDU dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent*

Annotatsiya: Ushbu maqolada yangi o'zbek she'riyatidagi hajviy asarlarni tadqiq qilish an'anasi, ijodkorlarning hajvnavislik mahorati, hajviyotidagi o'tkir kulgining shakllari, hajviy asarlarida inson ma'naviyati va axloq muammolari tadqiq etilgan. Shu jihatdan Abdulla Oripov, Erkin Vohidov va Anvar Obidjon hajvlari tahlili shuni ko'rsatadiki, ularda ko'pincha satirik kulgi va uning shakllari uchrashini ko'ramiz. Ijodkorlar hajvlarida kulgi niqoblari bir-biriga uyg'unlashadigan kinoya, zaharxanda, sarkazm, piching, fosh qiluvchi kulgi asosiy o'rinni egallashi ko'rsatib beriladi va hajviy asarning qimmatini oshiruvchi quroli bo'lmish kulgini hosil qiluvchi vositalar o'rganilgan.

Kalit so'zlar. Hajviya, san'at, ma'naviyat, axloq muammolari, kulgi, humor, mubolag'a, sarkazm, drama, an'ana, satirik kulgi, masxara qiluvchi kulgi, fiziologik kulgi.

Kirish: Yuliy Sezar Skaliger poeziyaning paydo bo'lishini o'ziga xos tushuntiradi. Unga ko'ra, mavjud narsalarning barini uch turga: zaruriy, foydali va huzurbaxsh narsalarga ajratish mumkin. Jumladan, fikr tashish – zarurat, shu zarurat asosida nutq paydo bo'lgan. O'z navbatida, barcha san'atlar (ilmlar) nutq asosida vujudga kelgan. Skaliger nutq zarurat tufayli, amaliy foydalanish yoki huzurlanish maqsadida qo'llanishi mumkin deb biladi va shunga mos holda nutqning uchta tipini ajratadi. YA'ni, haqiqatni bilish zarurati falsafaga, amaliy foydalanish maqsadi maishiy donishmandlikka, huzurlanish istagi poeziyaga nutq beradi. Binobarin, shu uchta tipi shoirlarga benihoya keng ijod maydonidir. Erkinlik va idealga talpinish esa ijodkorning mavqeini belgilaydi. Bu mavqe o'sish-o'zgarishlarga yetaklaydi. Shunday ekan, antik yunon madaniyatidan to

o‘zimizning xalq og‘zaki ijodi namunalarida ham shu uchta tipning turli xil shamoyillarini ko‘rishimiz mumkin. **Zaruriy, foydali va huzurbaxsh** narsalar jiddiy she’riyat bilan hajviy she’riyatning mohiyatida turgan – inson obrazini tipiklashtiradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya: Narsa va hodisalar fasllar va yillar almashinuvi, avlodlar tafakkuridagi olg‘a siljishlar, fan-texnika inqilobi XX asrda katta o‘zanlarga yo‘l ochdi. Shuning uchun ham E.Vohidov, A.Oripov, O.Matjon, A.Obidjon salaflari orasida she’riy janrlarni rivojini benihoya kengayishiga hissa qo‘shdi. Natijada shaxsga munosabat o‘zgardi. Endilikda madhiyabozlikning boshqacha bo‘lishi mumkin emasligiga oddiy kitobxonni ham ishontirishga yetakladi. Jiddiy kulgi bilan nosamimiy ijod mahsulotlarini farqlashga o‘zlarining iste’dodi bilan javob bera oldilar. Yozuvchi Nazar Eshonqul ta’biri bilan aytganda “Kuyi shunday bo‘lsa, dardning o‘ziga qanday chiday oldi ekan odamzod?!” Darvoqe, biz zavq olayotgan san’at asarlari ijodkorning beedad og‘riqlari, dardi, musibati evaziga yaratilganini, biz esa undan yanada ulug‘vorroq san’at asarlari kutishga ko‘nikib qolganimizni bir qiyoslab ko‘ring. ...Ijodkor esa olomon e’tirofiga erishish uchun yanayam ko‘proq iztirob chekadi, o‘zini azoblar girdobiga tashlaydi. Iztirob qanchalik san’atkorona aks etsa, muallif undan ham og‘irroq dardni boshdan kechirgan. Bizga zavq berayotgan san’at asari ijodkorning og‘riqlari va xo‘rliklari evaziga yaralgan”. Haqiqatdan ham, shoirlik qismati og‘ir. Dard va iztirobdan yaratilgan hajviy asarlar ham bundan mustasno emas. U qanday shaklda bo‘lmisin, jamiyat ichidagi muammolar shoир yuragini bezovtalaydi. Turli xil toifa kishilari ruhiyatida kechayotgan tragik narsalar oxirida insonning maqsad muddaosi yashiringan bo‘ladi. Buni hajv ustasi yanada yashiradi. Ong va tuyg‘uda aks etgan iztiroblar yig‘indisi she’rning g‘oyaviy-badiiy mundarijasini belgilab beradi:

Bu nechuk shoир demang, asli man nosog‘roq,

Yozg‘onim shaklan g‘azal, lek o‘zi barmog‘roq.

Har qalay she’rimda bor ma’ni-yu, oz-moz fikr.

Ko‘p axir ahli qalam mandinam maymog‘roq.

Kimsa der: “Qilsang hajv, beknimas pastroqni ur,

Tinchgina avqot yeyur bo'lsa kim qo'rqog'roq".

Mazkur she'rda haqiqiy bir mahoratning kulgiga yo'g'rilgan dardlarini, iztiroblarini ko'rishimiz mumkin. Anvar Obidjon "Bezgakshamol" turkumida g'azal shaklida juda ko'plab ijtimoiy-sisiy masalalarni 80- yillarda yozib tugatgan. Haqiqatdan ham sobiq ittifoq davrida ana shunday "haybarakallachilik" kayfiyatida qanchadan-qancha asarlar yozilmadi deysiz? Muharrirga olib borgan g'azalida – haqiqiy talantning o'rtamiyona shoir oldida izza bo'lishi qalamga olinadi. Shoир o'z she'rlarining gazetada chiqmasligini yengil kinoya bilan tushuntiradi.

Natijalar: She'ridagi ijtimoiy dard odamlar dardi bo'lib yangraydi. Muharrir bu she'rga bepisandlarcha yondashadi. Oddiygina shoir va muharrir orasida kechgan she'riy muloqot jamiyat hayotini tasavvur qilishga imkon tug'diradi. Kuchli hayajon bilan "1979 yil tiklandi" deb bitilgan imzoda shoirning kinoyaviy usulini payqash qiyin emas. "Yovvoyi g'azal" turkumida 68 ta raqamli va ikkita "Yovvoyi g'azal so'g'ingidin olding'i" deb nomlaydi. Shu o'rinda shoir nega g'azallarini "Yovvoyi g'azal" deb nomlaydi? Asarga kiritilgan aksar she'rlar Gulmat Shoshiyning bir-biridan qiziqarli sarguzashtlari bilan bezatilgan. Gulmat Shoshiy o'ta sinchkov va aqli shoir. U har bir narsaga teran nigoh bilan qaraydi. Jamiyatdagi muammolarni o'tkir fasohat bilan angraydi. Aynan shu xarakteri unga mudomi pand beradi. Shoirning o'z iztirobi va dardi ayna shu g'azallar bag'riga yashirilgan. She'rning keyingi bandlariga e'tibor qartamiz:

Asli chin ash'ornavis yozmag'ay oddiy bayon,

Barchani o'yantirur, gap otib ilmog'roq.

Dard chekib bitsam g'azal, bosmag'ay turkiy gazet,

O'ltirur unda birov fahmi sal tarqog'roq.

Ul dedi: "Gulmat, jo'na, paytava qilmam she'ring,

Lek o'zin yozg'onlari bundinam paypog'roq"¹.

Muhokama: Xo'sh, asli chin ash'ornavis kim? Shoirning o'zi. Hangomaga aylangan diologik munosabat zamirida davraning to'rida iste'dod sizlar o'tirganini va

¹ Обиджон А. Гулмат Шошийнинг ёввойи девони. –Т., "Шарқ". 2003. -Б.12.

bayroq ularning qo‘lida ekanligini ko‘rishimiz mumkin. “Dard chekib bitsam g‘azal, bosmag‘ay turkiy gazet” deyishida ham buni yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Sobiq ittifoq davrida qancha asarlar yozilmadi. Shu sobiq ittifoq mafkurasiga xizmat qilingan, insonning tabiy kechmishlaridan ayro tiklangan asarlar o‘sha davr bilan nom-nishonsiz yo‘qolib ketmadimi? Tarixdan buni hech kim inkor qilolmaydi. Eng ilg‘or terimchi, eng ilg‘or sut sog‘uvchi, eng ilg‘or quruvchilar, mehnatkashlar jamoasining hayotini ko‘pirtirib bitilgan jild-jild asarlarni bugun kim biladi? Shoирni ana shu ijtimoiy dard asl maqsadini ochiqlashga hajv yo‘sinda qalam tebratishga undagan. Ijtimoiy dardning zalvori ham, undagi aks etayotgan masalalar ham obyektimizga tanlangan to‘rtta shoирni umumiyligi bir maqsad tomon birlashtirib turibdi. Mavjud tuzum yo‘riqnomasida ko‘rsatilgan mavzularning asar deb o‘quvchiga taqdim qilinishini o‘sha nomlari keltirilgan shoirlar hazm qilolgan emas. Ayni shu kayfiyatda – hajviyot yordamga kelgan. Botinan iztirob, zohiran kulgiga moyillik bularning ijodida tarannum ilingan “pafos”ni yuzaga chiqishiga sharoit hozirlaydi. Mana shu xotimada yuqoridagi mulohazalarimizning asosiy mantiqini ko‘ramiz: **“Ul dedi: “Gulmat, jo‘na, paytava qilmam she’ring// Lek o‘zin yozg‘onlari bundinam paypog‘roq”**. Mana shu talqinning o‘zi ham o‘quvchini yanada teran mushohadaga chorlaydi. “Yovvoyi g‘azal”ning mohiyatida aks etgan falsafiy-estetik g‘oya aslida ijodkorning konseptual qarashlarining mevasi ekanligi ayonlashadi.

Xulosa: A.Obidjon yana bir asarida nomdorlik shohsupasiga ildam ilgarilayotgan olim xususida “Kambag‘albop Gulmatiy” nomli hikoya yozadi. Mana shu nasriy asarda shoир mahoratini yana bir bor isbotlaydi. Gulmatshunos Butundor Tusmoliyning ilmiy ishi borasida o‘zining botinidagi ko‘p haqiqatlarni keltirib o‘tadi. Satira aslida o‘zimizning ibridoq qarashlarimizdan yozma adabiyotga ko‘chib o‘tgan degan xulosaga keladi: “Eramizdan ilgariroq bandalik qilgan yunon qalamkashi Aristofan o‘zining achitqiroq asarlarini “satirik dramalar” deb ataganidan so‘ng ushbu atama olam bo‘ylab tarqalgan bo‘lsa-da, ammo bundan o‘zbeklar kulishni yunonlardan o‘rganibdi, degan xulosa kelib chiqmaydi. Chunonchi, o‘zbekona askiya gulxan atrofida davra qurib,

mamont go'shtining jizg'anak bo'lishini kutganlaricha qiy-chuvlashib o'tiruvchi ibtidoiy odamlar marosimiga juda mos tushadi. Askiyalar latifalarga, latifalar ertaklarga, ertaklar dostonlarga aylana borgani sari og'zaki ijodning inqirozi tobora kuchayib, yana ibtidoiy davrning boshlang'ich nuqtasiga qaytish – yozuvga murojaat etish ehtiyoji tug'ilashadi...

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Nazar Eshonqul. Menden "men"gacha. –T., "Akademnashr". 2014. –B.185.
2. Obidjon A. Gulmat Shoshiyning yovvoyi devoni. –T., "Sharq". 2003. -B.12.
3. Quronov D. va bosh. Adabiyotshunoslik lug'ati–T., "Akademnashr". 2010. –B. 139-140.
4. Vohidov E. She'r dunyosi. Tanlangan asarlar, 2-jild. –T., "Sharq". 2001. –B.180.
5. Shukurov N. Jonim – she'riyatim. O'zbek adabiy tanqidi. Antologiya. –T., "Turon-Iqbol". –B.104.
6. Vohidov E. Umrim daryosi. Tanlangan asarlar, 2-jild. –T., "Sharq". 2001. –B.103.